

5-10-2019

## IMPROVING THE EFFECTIVENESS OF TRAINING THROUGH THE USE OF INNOVATIVE EDUCATIONAL TECHNOLOGIES IN THE EDUCATIONAL PROCESS

Dilfuza Karabayeva  
*Termez State University*

Habiba Suvonova  
*Termez State University*

Follow this and additional works at: <https://uzjournals.edu.uz/namdu>



Part of the [Education Commons](#)

---

### Recommended Citation

Karabayeva, Dilfuza and Suvonova, Habiba (2019) "IMPROVING THE EFFECTIVENESS OF TRAINING THROUGH THE USE OF INNOVATIVE EDUCATIONAL TECHNOLOGIES IN THE EDUCATIONAL PROCESS," *Scientific Bulletin of Namangan State University*. Vol. 1 : Iss. 2 , Article 48.

Available at: <https://uzjournals.edu.uz/namdu/vol1/iss2/48>

This Article is brought to you for free and open access by 2030 Uzbekistan Research Online. It has been accepted for inclusion in Scientific Bulletin of Namangan State University by an authorized editor of 2030 Uzbekistan Research Online. For more information, please contact [brownman91@mail.ru](mailto:brownman91@mail.ru).

---

# IMPROVING THE EFFECTIVENESS OF TRAINING THROUGH THE USE OF INNOVATIVE EDUCATIONAL TECHNOLOGIES IN THE EDUCATIONAL PROCESS

**Cover Page Footnote**

???????

**Erratum**

???????

## O'QUV JARAYONIDA INNOVATSION PEDAGOGIK TEXNOLOGIYALARNI QO'LLASH ORQALI TA'LIM SAMARADORLIGINI OSHIRISH

Qorabayeva Dilfuza Jo'rayevna  
Suvonova Habiba Karim qizi  
Termiz davlat Universiteti

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada o'quv jarayonida innovatsion pedagogik texnologiyalarni qo'llash orqali ta'lim sifatini oshirish masalasi ko'zda tutilgan. Bunda hozirgi kundagi mamlakatimizdagi ta'lim sohasidagi tub o'zgarishlar va ushbu o'zgarishlarning natijasi sifatida ta'lim jarayonida innovatsion pedagogik texnologiyalarning qo'llashning o'ziga xos xususiyatlarni keng turda ochib berilgan.

**Kalit so'zlar:** innovatsiya, pedagogik texnologiya, ilmiy-pedagogik faoliyat, malaka oshirish, davlat ta'lim standarti, inferfaol metodlar.

## ПОВЫШЕНИЕ ЭФФЕКТИВНОСТИ ОБУЧЕНИЯ ЗА СЧЕТ ИСПОЛЬЗОВАНИЯ ИННОВАЦИОННЫХ ПЕДАГОГИЧЕСКИХ ТЕХНОЛОГИЙ В УЧЕБНОМ ПРОЦЕССЕ

Карабаева Дилфуза Жураевна  
Сувонова Хабиба Карим қизи  
Термезский государственный университет

**Аннотация:** В данной статье рассматривается задача повышения качества образования путем применения инновационных педагогических технологий в процессе обучения раскрыты особенности применения инновационных педагогических технологий как результат происходящих в сфере образования в стране на сегодняшний день.

**Ключевые слова:** инновация, педагогическая технология, научно-педагогическая деятельности, повышение квалификации, государственный стандарт образования интерактивные метод.

## IMPROVING THE EFFECTIVENESS OF TRAINING THROUGH THE USE OF INNOVATIVE EDUCATIONAL TECHNOLOGIES IN THE EDUCATIONAL PROCESS

Karabayeva Dilfuza Jorayevna  
Suvonova Habiba Karim qizi  
Termez State University

**Abstract:** In this article the problem of improving the quality of education through the use of innovational pedagogical technologies in the learning process is examined, the peculiarities

*of the use of innovative pedagogical technologies as a result of changes in the education in the country today are disclosed.*

**Key words:** *innovation, pedagogical technology, scientific and pedagogical activity, advanced training, state standard of education, interactive methods.*

2017-2021 yillarda O'zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo'nalishi bo'yicha "Harakatlar strategiyasi" qabul qilinib, ushbu strategiyada mamlakatimiz ta'lim tizimini ham davr talablariga mos ravishda takomillashtirish ko'zda tutilgan. Shu bois 2017 yil 6-aprelda Vazirlar Mahkamasining "Umumiy o'rta va o'rta maxsus, kasb-hunar ta'limining davlat ta'lim standartlarini tasdiqlash to'g'risida"gi qarori qabul qilindi. Ushbu hujjatda umumta'lim fanlarini o'qitishning zamonaviy metodolo-giyasini yaratish, ta'limning uzluksiz va uzviyligini ta'minlash, o'quv dasturlari masala va darsliklarning yangi avlodini yaratish kabi masalalarini ko'zda tutilgan. Shu o'rinda aytish joizki, ushbu qabul qilingan davlat ta'lim standartining maqsadi mamlakatimizda amalga oshirilayotgan ijtimoiy-iqtisodiy islohatlar, rivojlangan davlatlarning ilg'or tajribalari, zamonaviy axborot kommunikatsiya texnologiyalarga asoslanib darslarni tashkil etib, shu negizda ta'lim samaradorligini oshirish orqali ma'naviy barkamol va har tomonlama intellektual shaxsni tarbiyalashdir. Hozirgi kunda mamlakatimizda ta'lim berishning yangi tizimi ishlab chiqilgan bo'lib, bevosita jahon ta'lim tizimidan o'rin olishga yo'naltirilgan. Bu jarayon ta'lim-tarbiya jarayonidagi o'zgarishlar bilan bog'liqdir. Chunki bugungi kunda ta'lim berishning paradigmasi o'zgaradi, ta'lim mazmuni yangilanib, yangicha qarashlar, yangicha munosabat paydo bo'ladi. Jahon mamlaktlarining iqtisodiy kuchi, xalqning turmush-tarzining yuqori bo'lishi, jahon hamjamiyatdagi o'rni va nufuzi shu mamlakatning ta'lim va tarbiya tizimining rivojlanishi bilan aniqlandi. Umuman jamiyatning rivojlanishi va texnologiyalarini kiritish sifati mamlakatning ta'lim berish ishining yo'lga qo'yilganligi va shu soxani axboratlashtirish jarayoni bilan bog'liqdir[1].

Davlat ta'lim standarti asosida o'qitish jarayonini tashkillashtirish ta'limda innovatsion pedagogik texnologiyalarni qo'llash vazifasini yuklaydi. Ushbu vazifalarni amalda joriy etish maqsadi, ta'lim beruvchilarning o'qitishning interfaol metodlarni doimiy o'zlashtirilishi, hozirgi kundagi innovatsion texnologiyalardan xabardor bo'lishi va psixologik –pedagogik diagnostikani o'zlashtira oladigan izlanuvchi –pedagog bo'lishidir.

Mamlakatimiz rivojlanishining muhim sharoiti zamonaviy iqtisodiyot, fan, madaniyat, texnika, texnologiya rivoji asosida kadrlar tayyorlashning takomillashgan tizimning amal qilishiga erishishdir. Ta'limning bugungi vazifasi o'quvchilarni kun sayin oshib borayotgan axborot-ta'lim muhiti sharoitida mustaqil ravishda faoliyat ko'rsata olishiga axborot oqimidan oqilona foydalanishiga o'rgatishdan iboratdir. Buning uchun ularga uzluksiz ravishda mustaqil ishlash imkoniyati va sharoitini yaratib berish zarur.

Ta'limning samaradorligi oshirish va bilimlarni to'la egallashlariga erishish, shaxsning ta'lim diqqat markazida bo'lishini va yoshlarning mustaqil bilim olishlarini taminlash uchun ta'lim muassasalariga yaxshi tayyorgarlik ko'rgan va o'z sohasidagi bilimlarni mustahkam egallashdan tashqari zamonaviy pedagogik texnologiyalarni va interfaol usullarni biladigan, ulardan o'quv va tarbiyaviy mashg'ulotlarni tashkil etishda foydalana oladigan o'qituvchilar kerak. Buning uchun barcha fan o'qituvchilarini innovatsion pedagogik texnologiyalar va interfaol usullar bilan qurollantirish hamda olgan bilimlarini o'quv –tarbiyaviy mashg'ulotlarda qo'llash malakalarini oshirib borish lozim [2].

Pedagoglar o'z mutaxassisliklari bo'yicha egallagan bilimlari qatorida pedagogik va psixologik bilimlarni hamda texnologik yondashuv asosida o'qitish uslubiyotini ham egallagan bo'lishlari zarur. Ana shularni e'tiborga olgan holda, pedagoglarning malakasini oshirishda quyidagi masalalar muhim deb belgilandi.

\*o'qitish jarayonining samaradorligini ta'minlovchi pedagogik malakalarni shakllantirish;

\*o'qitish faoliyatining metodologik asosi sifatida pedagogik bilimlar tizimini egallash;

\*o'qituvchilarning kasbiy faoliyatlari foydalaniladigan uslublar tizimi sifatidagi o'qitish texnologiyasini egallash.

Hozirgi paytda mamlakatimizdagi ta'lim sohasidagi tub o'zgarishlar natijasida iqtidorli yoshlarni aniqlash va ularning ijodiy ish bilan shug'ullanishga katta imkoniyatlar yaratilgan. Shuning uchun yosh avlod tarbiyasi bilan shug'ullanadigan ijtimoiy-pedagogik xizmatning sifatini oshirish, uni samarali tashkil etishning ehtiyoji tug'uldi. Navbatdagi kechiktirib bo'lmaydigan eng muhim vazifa o'qituvchilarga innovatsiyaning ilmiy-pedagogik asoslarni o'zlashtirilishi talab etiladi. Chunki o'qituvchining malakasini oshirish va ijtimoiy-pedagogik jarayonini samarali tashkil etishda innovatsion-pedagogik texnologiyalarni o'zlashtirishning ahamiyati katta.

Hozirgi davr ta'lim taraqqiyoti yangi yo'nalish-innovatsion pedagogikani maydonga olib chiqdi. "Innovatsion pedagogika" termini va unga xos bo'lgan tadqiqotlar XX asrning 60yillarida G'arbiy Yevropa va AQSH da paydo bo'lgan. Innovatsion faoliyat F.N.Gonobolin, S.M.Godnin, V.I.Zagvzyazinskiy, V.A.Kan-Kalik, N.B.Kuzmina V.A.Slastenin tadqiqothilarning ishlarida tadqiq etilgan. Bu tadqiqotlarda innovatsion faoliyat yangilik va ilg'or pedagogik tajribalarni keng yoyish nuqrai nazaridan yoritilgan[3].

**"Innovatsiya"** degan so'z-latin "novus" yangilik va "in" kiritish degan so'zdan olingan bo'lib, uning o'zbekcha tarjimasi "yangilik, yangilanish, o'zgarish" degan ma'nolarini bildiradi.

"Innovatsiya" tushunchasi haqida tadqiqotchilar tomonidan har xil ta'riflar berilgan. Masalan, E.Rodjers innovatsiya tushunchasi haqida shunday deydi: "Innovatsiya ma'lum bir insonga yangi bo'lib qabul qilindigan g'oyalar" desa,

tadqiqotchi olim Mayls: "Innovatssiya maxsus yangich o'zgarish. Biz undan tizimli vazifalarimizning ro'yobga chiqishini va uning yechimlarini kutamiz" deydi.

Tadqiqotchi olimlar T.I.Shamova, P.I.Tretyakovalar "Innovatsiya" tushunchasini quyidagicha ta'riflaydi: "Yangi mazmunni tashkillashtirish, yangilik kiritish deganimiz faqatgina yangilikni kiritish, shakllantirishni belgilaydi, "yangilanish" deb yangilikning mazmuni kiritishning metodlari va texnologiyalarini qamrab oladigan jarayondir".

Innovatsion texnologiyalarni yaratish, izlash, topish, to'plash haqida tegishli ma'lumotlar jamg'arma bankini yaratish, tahlil qilish, tanlash, ta'lim muassaiga joriy etish bo'yicha tashkiliy pedagogik ishlarni tashkil etadi[4].

Innovatsiya o'zining rivojlanish jarayonida ma'lum bir hayotiy rivojlanish bosqichlarida turadi.

- yangi g'oyaning paydo bo'lishi;
- maqsadning aniqligi;
- tarqalishi va qo'llanishi.

Xulosa shuki agar innovatsiyalarni o'quv jarayoniga qo'llashni yo'lga qo'ysak:

- o'qituvchilarning yangilikka intiluvchanligi, yangilikni yaratish, izlab topish, to'plash ta'lim --jarayoniga qo'llash, ko'nikma va malakalari shakllanadi;

- o'quv jarayonida o'quvchilarining faol qatnashishiga, ma'suliyatni his qilib o'z fikrini bildirishiga ijodiy muhit yaratadi;

- o'quv jarayonini samarali va qiziqarli tashkilshtirishga imkoniyat yaratadi;
- ta'lim samaradorligi kafolatlanadi.

Yuqoridagi fikr mulohazalardan kelib chiqi, bugungi kunda respublikamizda amalga oshirilayotgan ta'lim soxasidagi tub o'zgarishlar yoki ta'limda innovatsiyalar o'z navbatida o'quv jarayoniga interfaol metodlarni qo'llash orqali ko'rishimiz mumkin. Hozirgi paytda ta'limning har bir bo'ginida interfaol metodlaridan foydalanish tobora ommalashmoqda. Mazkur metodlar ta'lim subektlari o'qituvchi-o'quvchi va o'quvchi guruhi o'rtasida yuzaga keluvchi hamkorlik, qizg'in mulohazalar o'zoro fikr almashish egalik asosini tashkil etadi, o'quvchilarda erkin fikrlash, shaxsiy qarashlarini bayon etish, muommoli vazuyatda yechimlarini birgalikda izzlash, o'quv materiallarni o'zlashtirishda o'zoro yaqinliklarni yuzaga keltirish, "o'qituvchi-o'quvchi o'quv guruhi" o'zoro bir-birlariga xizmat qilishlri, tushunishlari va qo'llab-quvvatlashlari, do'stona munosabatda bo'ishlari, ruhiy birlikka erishishlari kabilar bilan tavsiflanadi. Interfaol metodlar bu jamoa bilan fikrlash deb yuritiladi, ya'ni pedagogik ta'sir etish bo'lib ta'lim mazmunining tarkibiy qismi hisoblanadi. Bu metodlarining o'ziga xos xususiyati shundaki, ular faqat o'qituvchi-o'quvchilarning birgalikda faoliyat ko'rsatishi orqali amalga oshadi. Interfaol metodlari bu "o'qituvchi va o'quvchilar" o'rtasida o'zoro hamkorlikni hamfikrlik va hamjihatlikka asoslanuvchi ta'lim shakli bo'lib, o'quvchilar tomonidan o'quv material-larining tezkor va samarali o'zlashtirilishini ta'minlaydi.

Iterfaol ta'limda faol qo'llanuchi metodlari sifatida amaliyotchi psixologlar baxs-munozaralar, muommoli vaziyatlarni hal qilish, amaliy treninglar, rolli o'yinlar

ishbilarmonlik o'yinlari, debatlar, intervyu, namoyish, va o'ziga xos shartlarga ega interfaol metodlar bilan yetarli darajada tanish bo'lishlari maqsadga muvofiqdir.

Quyida biz ta'lim samaradorligini oshirish mumkin bo'lgan ba'zi bir interfaol metodlar haqida ma'lumot hamda ularni qo'llash tartibi to'g'risida metodik tavsiyalar beramiz.

**“SWOT”-metodi.** Biz ushbu metodni bugungi kunda shiddat bilan rivojlanayotgan jamiyatda o'qituvchi faoliyati ya'ni zamonaviy o'qituvchi qanday bo'lmog'i kerak degan savolga javob topishimiz mumkin.

**“SWOT”-** metodi inglizcha so'z birikmalarining qisqartmasidan hosil bo'lgan. Ushbu metod bir masalaning to'rt qirrasini ko'rib chiqish imkonini beradi.

Qo'llash tartibi bugungi kunda o'quvchi shaxsini rivojlantirishga yo'naltirilgan ta'limni joriy etishda o'qituvchidan nimalar talab qilinadi, umuman zamonaviy o'qituvchi qanday bo'lishi kerak degan savollarga maktab direktori o'quvchilar nuqtai nazaridan tahlil qiling. Ya'ni bu metodni amalga oshirishda quyidagi masalalariga e'tiborni qarating.

1.Sterngh (kuch)- zamonaviy o'qituvchining ustunlik jihati nimada,uning kuchli tomonlarini sanab o'ring.

2.weakne (zaiflik)- zamonaviy o'qituvchining zaiflik tomoni nimada.

3.Opportunities (imkoniyat)- zamonaviy o'quvchining atrofida qanday imkoniyatlar mavjud.

4.Threat (xavf-xatar)- o'quvchi shaxsini rivojlantirishga yo'naltirilgan ta'limni joriy etishda qanday tashqi omillar xavf tug'dirishi mumkin.

Kuch(strength) bilimdon,o'z ustida tinimsiz ishlaydigan, qiziquvchan, talabchan, yangilika intiluvchan.

Zaif (weakne) yumshoq tabiatli, jaxldor, xotirasi sust

Imkoniyat(opportunities)maktab jamoasi orasida o'z o'rni bor,hamma hurmat qiladi, o'quvchilarning o'ta-onalari qo'llab-quvvatlaydi

Xavf xatar (Threat) maktabning moddiy –texnika bazasi nochor maktab jamoasida nosog'lom muhit, o'quvchilarning ta'lim olishidagi harakatining sustligi

**“Maqola zanjir” metodi.**O'quvchilarni o'tilgan mavzuni egallanganlik va mavzu bo'yicha tayanch tushunchalarni o'zlashtirib olganlik darajasini aniqlash ,o'z bilimlarni mustahkamlash va o'z fikrini erkin bayon eta olishga imkoniyat yaratadi.



**Qo'llash tartibi:** "Maqollar zanjiri" quyidagi berilgan maqollar asosida tuzilgan bo'lib, har bir maqoldan keyin ko'rsatilgan raqam maqol tarkibidagi tushurilib qoldirilayotgan so'z necha harfdan iborat ekanligini bildiradi. Birinchi maqolning oxirgi harfi bilan ikkinchi maqol boshlanadi.

**Maqollar:**

- |  |           |
|--|-----------|
| 1. Ishning o'zini bilguncha ...ini bil.(3ta)   | (ko'z)    |
| 2. Libosingga oro berguncha...ga zeb ber.(9ta) | (farosat) |
| 3. ...mehmon osh ustidan chiqar(6ta)           | (rizqli)  |

**Javobi**

**"PANNORAMA" metodi.** Bu metod munozarali masalalrni hal etishda, baxs-munozaralar o'tkazishda yoki o'tilgan mavzuni mustahkamlashda qo'llanishi mumkin. Chunki, bu metod o'quvchilarni o'z fikrini himoya qilishga, erkin fikrlashga va o'z fikrini boshqalarga uqtirishga, o'zgalar biln baxs-munozara o'tkazishga, shuningdek, dars jarayonida egallagan bilimlarni tahlil qilishga, qay darajada o'zlashtirishini baxolashga va baxs-munozara o'tkazish madaniyatiga o'rgatadi.

**Qo'llash tartibi:** ma'lum muommo yuzasidan har bir ishtirokchi o'z fikr mulohazalarini bildiradi. Ya'ni ishtirokchi muommoni kelib chiqsh sabablarini qidiradi, uning yechimini topadi va o'zining shaxsiy fikrini aytadi.

| <b>Muommoli masalaning qo'yilishi</b>  | <b>Kelib chiqish sabablari</b> | <b>Muommoning yechimi</b> | <b>Shaxsan men nima qilardim</b> |
|--|--------------------------------|---------------------------|----------------------------------|
| Tarbiyasi og'ir o'quvchilar (ya'ni o'qishga, mehnat qilishga ishtiyoqi yo'q o'quvchilar) |                                |                           |                                  |

**Qora quti metodi** (o'zlashtirilgan tushunchalarni mustahkamlash)

Ushbu metod vositasida juftlik asosida quyidagi harakatlar tashkil etiladi.

-o'quvchilar navbat bilan o'qituvchi rolini bajaradilar. Sinf taxtasiga sitoplazma, mag'iz, vakuola, plastida hamda to'qima kabi atamaları yoziladi. dastalab o'qituvchi rolini bajaruvchi o'quvchi qayd etilgan ro'yhatga hujayra mohiyatini yorituvchi asosiy tushunchalar kiritilganligini tekshiradi. So'ngra o'quvchilardan sinf taxtasida o'z ifodasini topgan atamalarga izoh berish so'raladi, to'g'ri javob bergan o'quvchi o'qituvchi vazifasini bajaradi. O'quvchilar bu metodda o'z faoliyatlarini nazorat varog'iga o'zlari uchun baho qo'yadi.

**Yumoloqlangan qor o'yini metodi** (o'zlashtirilgan tushunchalarni mustahkamlash) Sinf o'quvchilari partalar qatori bo'yicha uch guruhga bo'linadilar. O'quvchilar turli atamaları (fan yuzasiagi) tushurilgan orqa tomonida esa 3 yoki 4 ta vazifa yozilgan kartochkalarni oladilar. Topshiriq juftlik asosida bajariladi: birinchi



savolga birinchi guruhning dastlabki juftliklari javob qatraradi, va hk. Faoliyat yakunida topshiriqlarning bajarilishi yuzasidan umumiy xulosa chiqariladi.

**Qarama-qarshi munosabat metodi:** (tushunchalarni mustahkamlash)

Mazkur metod yordamida (masalan biologiyada) “men hujayraning hayotida”, “hujayra mening hayotimda” mavzusida matn tuzish va har bir terminlarga alohida eʼtibor berish.

### References

1. Kadrlar tayshlash milliy dasturi. Toshkent,1997 y.
2. Karimov I.A. Yuksak maʼnaviyat-yengilmas kuch. -T.:Oʻzbskiston, 2008
3. A.T.Gofurov, J.O.Tolipova, S.S.Fayzullayev, I.T.Azimov,B. Axmadaliyeva. Biologiyani oʻqitishning umumiy metodikasi. T.,2005, 1516.
- 4.Pedagogika. Pod redaksiyey akademika S. A .Smirnova. M., 2001.